



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 18-iyul

Nº 2027

O'zbekiston Respublikasi ayrim sudlariga sudyalarni tayinlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunning 69, 71, 72-moddalari va "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida"gi Qonunning 7, 17-moddalariga muvofiq:

Niyozov Yashin Komiljonovich – sudyalik vakolati muddati davriga Buxoro viloyat sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin;

Qurbonov Zavqiy Ibodilloevich – sudyalik vakolati muddati davriga Buxoro viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Buxoro tuman sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Buxoro viloyat sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

Tojiyev Jo'rabek Muxtorovich – sudyalik vakolati muddati davrining besh yil muddatiga Buxoro viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Qorovulbozor tuman sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Buxoro viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Buxoro shahar sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

Ravshanov Zarif Choriyevich – sudyalik vakolati muddati davriga Toshkent viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Bo'ka tuman sudining tergov sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Toshkent viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Yangiyo'l tuman sudining tergov sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

Ro'ziyeva Aziza Avazovna – sudyalik vakolati muddati davriga Navoiy viloyat ma'muriy sudining sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Navoiy viloyati Navoiy tumanlararo ma'muriy sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

Samiyev Baxtiyor Teshayevich – sudyalik vakolati muddati davriga Buxoro viloyat ma'muriy sudining sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Buxoro viloyati Buxoro tumanlararo ma'muriy sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

Soatov Utkirbek Eshnazarovich – sudyalik vakolati muddati davriga Toshkent shahar ma'muriy sudining sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Toshkent shahar Toshkent tumanlararo ma'muriy sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

Suyarov Alibek Norbekovich – sudyalik vakolati muddati davriga Samarqand viloyat ma'muriy sudining sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Samarqand viloyati Samarqand tumanlararo ma'muriy sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin.

Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov